

BOTIR ZOKIROV TAVALLUDINING 88 YILLIGI NISHONLANDI

Ibodullayev Azizbek Maxsudbek o'g'li
Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa
san'ati instituti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbek milliy estrada ijrochiligining asoschisi, mahoratli rassom, yozuvchi va tarjimon Botir Zokirovning 88 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan konsert dasturi haqidagi ma'lumotlarni olishingiz mumkin. O'zbek estradasining taraqqiyotida Botir Zokirovning o'rni, buyuk iste'dodi, noyob va betakror ijodi va shu orqali milliy estrada san'atini rivolantirish va targ'ib qilish masalalariga ham atroflicha to'xtalgan. Umrboqiy san'atkorning hayot yo'li, oilasi va ijodiy faoliyati va yutuqlari keltirilgan.

Kirish so'zlar: Estrada, Botir Zokirov, milliylik, ijro, san'at, qo'shiq, musiqa.

ОТМЕТИЛИ 88-ЛЕТИЕ СО ДНЯ РОЖДЕНИЯ БОТЫРА ЗОКИРОВА

Ибодуллаев – сын Азизбека Максудбека
Узбекский национальный институт музыкального
искусства имени Юнуса Раджаби Студентка 1 ступени.

Аннотация: В данной статье вы можете найти информацию о концертной программе, посвящённой 88-летию со дня рождения основоположника узбекской национальной эстрады, искусного артиста, писателя и переводчика Ботира Закирова. В развитии эстрадного искусства также подробно обсуждаются наследие Ботира Закирова, огромный талант, уникальное и неповторимое творчество, а значит, вопросы развития и популяризации отечественного эстрадного искусства. Жизненный путь художника длиной в жизнь. Перечислены семейная и творческая деятельность и достижения.

Ключевые слова: Эстрада, Ботир Закиров, национальность, исполнение, искусство, песня, музыка.

THE 88TH ANNIVERSARY OF BOTIR ZOKIROV'S BIRTHDAY WAS CELEBRATED

Ibodullayev is the son of Azizbek Maksudbekh
Uzbek National Music Art Institute named
after Yunus Rajabi 1st stage student

Abstract: In this article you can find information about the concert program dedicated to the 88th anniversary of Botir Zakirov, the founder of O deg national pop performance, skilled artist, writer and translator. The role of Botir Zakirov in the development of Uzbek pop art, his great talent, unique and unique creativity, and thus the development and promotion of national pop art were also discussed in detail. Life path, family and creative activities and achievements of the lifelong artist are presented.

Keywords: Estrada, Botir Zakirov, nationality, performance, art, song, music.

O‘zbek milliy musiqa san’atini rivojlantirish, uni jahon maydoniga olib chiqish uchun ko‘plab san’atkorlar sermahsul faoliyatni olib borishgan. Milliy maqom san’atini rivojlantirish uchun betakror hissasini qo‘shgan shaxs sifatida Yunus Rajabiy nomini tilga oladigan bo‘lsak, milliy estrada san’atini rivojlantirish uchun betakror hissa qo‘shgan shaxs sifatida esa Botir Zokirov nomini alohida ta’kidlashimiz lozim. Botir Zokirov O‘zbek milliy estrada san’ati rivojida ijodiy izlanishlar olib borgan. Uning ijodiy izlanishlari keyinchalik, o‘zbek estradasining mumtoz namunasiga aylandi.

Botir Zokirov 1936-yil 26-aprel kuni Moskvada san’atkorlar oilasida tavallud topgan. Botir Zokirov nafaqat hushovoz xonanda, shu jumladan, mahoratli rassom, yozuvchi va tarjimon ham bo‘lgan. Dastavval Toshkent davlat konservatoriyasining vokal fakultetida, keyinchalik, Toshkent davlat teatr va rassomchilik san’ati institutining rejissyorlik fakultetida ta’lim olgan. “Yoshlik” ansamblida, O‘zbek

davlat estrada orkesrtida, "O'zbekkonsert"da yakkaxon xonanda, Toshkent myuzikxolli tashkilotchisi sifatida faoliyatlarni olib borgan.

Botir Zokirov o'ta ta'sirchan tembrli, shirador ovozga ega inson edi. Ijro etgan qo'shiqlarining aksariyatini tugal va teran lirik-dramatik asar darajasiga ko'tara olgan. Repertuaridagi qator qo'shiqlar kompozitorlar tomonidan Botir Zokirov hamkorligida, uning ovoziga mo'ljallab yaratilgan. Xonanda ijodida o'zbek kompozitorlarining romans va qo'shiqlari muhim o'rin tutadi: Mutal Burhonovning „Maftun bo'ldim“, „Namedonam, chi nom dorad“, I. Akbarovning „Yor kel“, „Ra'no“, „Gazli“, „Seni eslayman“, Sayfi Jalilning „Majnun monologi“, „Kechalar yulduz sanab“, Enmark Solihovning „Umid“ kabi xalqimiz qalbidan chuqur joy egallab, xalq asarlariga aylanib ketgan.

Shuningdek, estrada uslubida kayta ishlangan hindcha „Nechun xayolga cho'mding?“, „Dil orzusi“, „Meychale“, eroncha „Maro bebus“, „Ayriliq qo'shig'i“, misrcha „Arabcha tango“, „Uyqum o'g'risi“, suriya tilida „O'tmishimga yig'layman“, livan ohangida „Go'zal qiz“, meksikan tilidagi „Alvido muhabbat“, italyan zabonida „Yashasin muhabbat“ qo'shiqlarini, chet el mualliflaridan E. Masias, J. Brel (Fransiya), Choudhuri, R. Shankar (Hindiston), Fatxulla Sulaymon (Suriya), Farid al-Atrash (Misr), aka-uka Rahboniylar (Livan), D. Ristich (Yugoslaviya) asarlarini har birini o'z sof tilida ijro etgan.

Botir Zokirovning rassom sifatida yaratgan „Avtoportret“, „Saraton“, „Gumbazlar“, „Bolalik ko'chasi“, „Chor minor“ kabi asarlari bizga ma'lumdir.

Bir qancha hikoya, ocherk va she'rlar, shuningdek, Ikrom Akbarovning „So'g'd elining qoplani“ ning librettosini yozgan. Asli kichkinalar uchun yozilgan lekin, kattalarga ham birdek maq'ul keladigan jahon adabiyotining durdonasi A. De Sent-Ekzyuperining „Kichik shahzoda“, hamda Y. Shvarsning „Soya“ asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, o'zbek adabiyotini boyitishga o'z xissasini qo'shgan. Kinoaktyor sifatida Yosh muhandis („Gullar ochilganda“), Rabindranat Tagor („Olovli yo'llar“), Abdullo („Dahoning yoshligi“) kabi obrazlar yaratgan.

Botir Zokirov “...Zalga qaramaslikka tirishib, qo‘shiqqa singib ketaman... Yer yuzida mendan baxtiyorroq kimsa yo‘q. Shunday daqiqalar haqqi hurmati yashasang arziydi”-deb aytgani haqida yozadi Shukur Xolmirzayev.

O‘zining butuk iste’dodi, noyob va betakror ijodi bilan o‘zbek estrada san’atiga asos solib, milliy madaniyatimizni rivojlantirish, uning shon-shuhratini dunyo xalqlari o‘rtasida keng targ‘ib etishga qo‘shgan beqiyos hissasi, yosh avlodni vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasidagi xizmatlarini inobatga olgan holda, Toshkent ko‘chalaridan biriga Botir Zokirov nomi berilgan. Shuningdek, Jizzaxdagi san'at bilim yurti, Samarqanddagi yoshlar san'at markazi uning nomi bilan yuritiladi. 1994-yil nomida estrada orkestri tashkil etildi. 1995-yil „Botir Zokirov jamg'armasi" tashkil etidi. 1989-yildan beri uning nomida zamonaviy estrada qo‘shiqchilari tanlovi o‘tkazib kelinmoqda. San’atkor tavalludining 85 yilligi munosabati bilan “El-yurt xurmati” ordeni bilan mukofotlandi.

Joriy yilning 2024-yil 26-aprel kuni O'zbek milliy estrada san'atining asoschisi Botir Zokirov tavalludining 88-yilligi munosabati bilan v.b.professor N.Amanova va institut ilmiy-tadqiqot markazining yosh tadqiqotchi talabalari ishtirokida ilmiy seminar bo‘lib o‘tdi. Botir Zokirov ijodi va merosini yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasidagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish hamda uni keng targ‘ib etish, uning ijodiy tajribasi orqali munosib izdoshlar tarbiyalash kabi masalalarga to‘xtalib o‘tiladi. Poytaxtimizdagi Xalqaro anjumanlar saroyida o‘zbek milliy estradasining asoschisi, ko‘plab durdona musiqiy asarlar muallifi va ijrochisi, o‘zbek xalqining suyukli va ardoqli ijodkori Botir Zokirov tavalludiga bag‘ishlangan “Kuylamoq-yashamoq demak” deb nomlanmagan xotira oqshomi bo'lib o'tdi. Ushbu san'at kechasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Xayriddin Sultonov, Prezident Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari Odil Abdurahmonov, O‘zbekiston madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, Prezident Administratsiyasi

madaniyat va san'atni rivojlantirish sho'basini hamda Madaniyat vazirligi rahbariyati, madaniyat va san'at namoyandalari, Botir Zokirov ijodi muxlislari ishtirok etdilar. San'at kechasida zabardast ijodkorimizning munosib izdoshlariga "Botir Zokirov" nomidagi milliy estrada mukofoti tantanali topshirildi. O'zbekiston xalq artisti Nasiba Abdullayeva "Eng yaxshi xonanda" nominatsiyasiga, "Eng yaxshi kompozitor" nominatsiyasi-Alisher Ikramovga, "Eng yaxshi aranjirovkachi-bastakor" nominatsiyasi-Shuhrat Zakirovga, "Eng yaxshi tashabbuskor-prodyuser" nominatsiyasi-Abduqahhor Sherembayevga, "Eng yaxshi targ'ibotchi ijodkor" nominatsiyasi-Ashurali Jo'rayevga, "Eng yaxshi tasviriy san'at ustasi" nominatsiyasi-Bahrom Norboyevga nasib qildi. O'zbekiston" Xalqaro anjumanlar saroyida bo'lib o'tgan tantanali xotira tadbirida O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov Botir Zokirov ijodining betakrorligi, keyingi yillarda san'atkor xotirasini ardoqlashga qaratilayotgan e'tibor xususida batafsil so'zlashdi. "Botir Zokirov o'zining mayin, sehri ovozini, betakror ijrosi bilan millionlab yuraklarni zabt etgan", - dedi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov. Uning ijrosidagi qo'shiqlar o'z davrida ham, bugun ham sevib tinglanadi". "Botir Zokirov milliy estrada san'atimizni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirib, betakror maktab yaratgan ijodkordir" Botir Zokirov qisqa umr ko'rsa-da, lekin uning estrada san'ati rivojiga qo'shgan hissasi ulkan," - dedi O'zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov ustoz san'atkoriga ko'rsatilgan bunday e'tibordan ularning ruhi behad shod bo'lganini aytdi. "Men ham o'zimni baxtli san'atkorlardan, deb bilaman. Sababi men ham Botir Zokirov bilan bir sahnada qo'shiq aytishga muvaffaq bo'lganman",-dedi tojikistonlik mashhur san'atkor Jo'rabek Murodov.

Joriy yilning 16-may kuni poytaxtimizning qoq markazida Botir Zokirovning muhtasham haykali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Haykal bronzadan yasalgan bo'lib, balandligi 3,2 metr, og'irligi esa 900 kg. Ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, san'at muxlislari qizg'in muborakbod qildi. "Bu haykal Botir Zokirov xotirasiga o'rnatilgan ramziy

bir timsoldir. Ayni paytda Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'atni ravnaq toptirish yo'lida olib borayotgan barcha islohotlarimiz va ularning amaliy natijalari bu ulug' ijodkorga eng munosib yodgorlik bo'ladi", - dedi Shavkat Mirziyoyev.

“Haqiqiy san’atkorlik iste’dod va mehnatni vijdon bilan uyg’unlashtirgan kishigagina nasib qiladi”-degan edi Botir Zokirov. U haqiqiy san’atkor bo‘la oldi. Muxtasar qilib aytganda, betakror ijod sohibi Botir Zokirov milliy estrada san'atida o'zidan yorqin iz qoldirgan, vatan taqdiri uchun qayg'urgan ulug' san'atkorlardan biridir. Albatta, Botir Zokirov hayoti va ijodi bugungi kun yoshlari, ustozlarning samimiyatidan, mahoratidan ibrat olib, o‘z iste'dodlarini namoyon qilishlari uchun ulkan maktab bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2000-2005
2. Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati institutining rasmiy kanali.
T.me/BZokirovnomidagiMESI
3. <https://gov.uz/madaniyat/>